



Expression of ideas of religious tolerance in the politico-legal views of Zahiriddin Muhammad Babur

Olim KHUSANBAEV¹

Tashkent State University of Law

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2024

Received in revised form

15 December 2024

Accepted 20 January 2025

Available online

25 February 2025

Keywords:

religion,
Islam,
religious tolerance,
belief,
Sharia norms,
sects,
views,
doctrine.

ABSTRACT

The article describes the ideas of religious tolerance in the politico-legal views of Zahiriddin Muhammad Babur, in particular of the pillars of Islam and its main schools based on the work of “Mubayyin”, Sharia norms, views of the ruler in relation to representatives of different religions. Issues of the importance of ideas of religious tolerance in the upbringing of the younger generation are also described.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss1-pp73-77>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Zahiriddin Muhammad Boburning siyosiy-huquqiy qarashlarida diniy bag'rikenglik g'oyalarining ifodalanishi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

din,
Islom dini,
diniy bag'rikenglik,
e'tiqod,
shariat normalari,
mazhablar,
qarashlar,
ta'limot.

Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning siyosiy-huquqiy qarashlarida diniy bag'rikenglik g'oyalari, xususan “Mubayyin” asari asosida islom dini ahkamlari va uning asosiy mazhablari, shariat normalari, turli din vakillariga nisbatan hukmdorning qarashlari bayon etilgan. Shuningdek, yosh avlodni tarbiyalashda diniy bag'rikenglik g'oyalarining ahamiyati masalalari bayon etilgan.

¹ Professor, Tashkent State University of Law. E-mail: o.xusanbayev@tsul.uz

Выражение идей религиозной толерантности в политико-правовых взглядах Захириддина Мухаммеда Бабура

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

религия,
Ислам,
религиозная
толерантность,
вера,
нормы шариата,
школы (мазхабы),
взгляды,
учение.

В статье изложены идеи религиозной толерантности в политико-правовых взглядах Захириддина Мухаммеда Бабура, в частности, основанные на работе «Мубаййин» столпы Ислама и его основные школы (мазхабы), нормы шариата, взгляды правителя о представителях различных религий, а также раскрыты вопросы о важности идей религиозной толерантности в воспитании подрастающего поколения.

Bobur podshoh sifatida o'zi asos solgan saltanat o'g'li va kelgusi vorislari tomonidan yana ham taraqqiy topishiga, avlodlari uning ezgu ishlarini davom ettirishiga ishongan va ularga nafaqat Hindistondagi buyuk mamlakatni, balki davlatni boshqarish sohasida Amir Temur va boshqa temuriy podshohlarning saltanat borasidagi tajribalarini hamda o'zining bu boradagi siyosiy qarashlari bilan boyitilgan davlatchilik sohasidagi boy merosini ham qoldirgan.

Ma'lumki, o'rta asrlarda davlat boshqaruvida hukmdorning diniy e'tiqodi uning fuqarolari nazarida muhim ahamiyat kasb etgan. Boburiylar sulolasining barcha vakillari imon-e'tiqodi butun, insofli hamda adolatli bo'lganliklari uchun Hindiston xalqi nazarida yuksak hurmat qozonganlar.

Ushbu saltanatning asoschisi bo'lgan mohir sarkarda va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur ham diniy e'tiqodi mustahkam va imoni butun hukmdor bo'lgan. Umrining kattagina qismi yangi jadallarga to'la holda o'tgan bo'lsa ham, u hamisha pok va halol yashashga intilar, besh vaqt namozni kanda qilmas, aql-zakovatining beqiyosligi va diniy ilohiy bilimlarining teranligi bilan olimu – ulamolar hamda din peshvolari o'rtasida katta obro' qozongan edi. U dindoshlariga va din ulamolariga hamisha hurmat e'tibor bilan qarab, ularning izzatini joyiga qo'yardi. [1]

Bizningcha, fanning turli xil sohalari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, ommabop maqola va risolalarda Bobur ijodi, uning harbiy va davlat boshqaruvidagi mahorati, dunyoqarashining barcha qirralari ro'y-rost va to'la yoritib berilgan, deb bo'lmaydi. Jumladan, Boburning din va diniy bag'rikenglik haqidagi qarashlariga, so'fiylik ta'limotiga, xususan, naqshbandiylik tariqati hamda uning yirik vakili Xoja Ahror Valiyga bo'lgan munosabatlari masalasiga ham bu tadqiqotlarda kamroq e'tibor berilgan.

Manbalardan ma'lumki, Bobur Markaziy Osiyodagi yirik tasavvuf namoyondasi, temuriylarning piri, naqshbandiya tariqatining ko'zga ko'ringan yirik ulamolaridan bo'lmish Xoja Ahror Valiy qalamiga mansub bo'lgan "Risolai volidiyya" asarini turkiy tilga tarjima qilgan. Boburning Xoja Ahror Valiy shaxsiyatiga va tariqatiga e'tiqodi juda kuchli bo'lgan. Bu ulug' zot Bobur dunyoqarashi va e'tiqodining shakllanishida muhim o'rin tutibgina qolmay, uning ta'limoti Boburning yetuk va adolatparvar podshoh bo'lishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Boburning shariat farzlarining bayoniga bag'ishlangan "Mubayyin" asarini yaratishi, uning yuksak iste'dod va e'tiqod egasi ekanligidan dalolat beradi. Shu bilan bir qatorda, u xurofot bilan haqiqat o'rtasidagi chegarani aniq fahmlay bilgan,

ular o'rtasidagi farqni chuqur anglagan. Bobur g'olibona yurishlari davomida fath etgan yurtlar xalqining tavof etadigan muqaddas qadamjolariga, ziyoratgohlari va mozorlariga hurmat-e'tibor bilan qaragan, ularning oyoqosti qilinishi yoxud tahqirlanishiga sira yo'l qo'ymagan.

Bobur boshqa mazhab va dinlar vakillariga ham xolisona muomala qilib, ularning diniy e'tiqodi kamsitilishiga yoxud ularga boshqa din vakillari tomonidan tazyiq o'tkazilishiga sira yo'l qo'ymas edi. U o'g'li Nasiriddin Muhammad Humoyunga atalgan maktubida shunday deb yozgan:

“...Ey farzand! Hindiston mamlakati turli mazhablardan iborat. Subhonollo taolo haqqi senga buyurildiki, har bir mazhabga pok qalb bilan qaragin, har bir mazhab va tariqatga adolatli bo'l. Xususan, sigirni qurbon qilishdan saqlanginki, bu Hindiston xalqining qalb ardog'i va bu viloyat ahli podshohga yaxshi nazar bilan bog'lanadi. Podshoh farmoniga bo'ysungan xalqni xarob qilmagin. Adolatni ixtiyor qilgin. Shunda shoh raiyatdan, raiyat shohdan xotirjam bo'ladi. Islomning taraqqiyoti ehson tig'i bilan yaxshiroqdir, zulm tig'i bilan emas. Ahli sunnat va shialarning ikir-chikirlaridan ko'zingni yum. Chunki islomga qarshilar bor. Turli e'tiqoddagi xalqlarni teng tutginki, shunda saltanat turli tashvishlardan xoli bo'ladi. Hazrat Sohibqiron Amir Temurning ish yuritishlari doimo yodingda bo'lsin. Shunda davlating ma'mur va puxta bo'ladi...” [2]

Bobur islomdagi sunniy mazhabiga mansub bo'lib, o'z taqdirini Allohdan ko'rardi. Uning diniy qarashlaricha: “Allohning xohishsiz hech ish bo'lmaydi. Taqdirimizni Allohning karamiga topshirib, o'zimiz olg'a intilmog'imiz lozim”. Biroq u diniy jaholatparastlikka yo'l qo'ymasdi. Bobur zarurat bo'lganda shia mazhabidagilar bilan ham hamkorlik qilib ketaverar edi. Shuning uchun ham sharoit taqozo etganda bu mazhabdagi Eron shohi Ismoiy Safaviy bilan sulh tuzgan edi. Albatta, Hindistonda hukmronlik qilgan paytda mahalliy hindlar diniga nisbatan murosasizlik qilgan holatlar ham bo'lgan, lekin bu faqat jang paytlaridagina sezilar edi, xolos.

Ma'lumki, Bobur Rona Sanga va Medini Raoning hind askarlariga qarshi jihad e'lon qilib, dushman qo'shinlari ustidan g'alab qozongan va o'zini “G'oziy”, deb e'lon qilgan edi. U musulmonlardan olinadigan “tamg'a” solig'ini bekor qilib, “Atodxyaya” deb ataladigan va mahalliy hindlar Avliyo Ramaning tug'ilgan joyi sifatida ziyorat qiladigan joyga masjid qurdirgan. Bobur ushbu chora-tadbirlarni o'z musulmon askarlarini ilhomlantirish uchun kurash holatidagi paytlaridagina qo'llagan. Shuning uchun ham uning asosiy quroli din emas, balki siyosat edi. Tinch hayot davrida u hindlarni ta'qib etmasdi. Hind tarixchisi A.L. Srivastavaning tan olishicha, Boburning o'z qo'l ostidagi mahalliy hindlarga bo'lgan munosabati undan avvalgi Dehli sultonlarining ularga bo'lgan munosabatlaridan yomon emas edi.

Hind tarixchilaridan biri S.R. Sharma: “Boburning bironta hind ibodatxonasini buzgani yoki hindlarni ularning diniy e'tiqodiga ko'ra ta'qib qilganining biron-bir asorati ko'rinmaydi” [3] – deb, boshqa bir hind tarixchisi Tripati esa: “Yaqin va O'rta Sharqdagi shialar va G'arbdagi sunniylar o'rtasida bo'lib o'tgan raqobatlar bilan taqqoslaganda bu ishlarning hech qanday ahamiyati yo'q”, – deb yozgan. [4]

Boburning dinga bo'lgan munosabati va bu boradagi qarashlarini o'rganish-uning siyosiy va huquqiy qarashlarining mohiyatini anglab olishga yordam beradi. Chunki o'rta asrlarda musulmon davlati podshohining yoki har qanday mutafakkirining qarashlari albatta, mazkur din doirasidan chetga chiqmagan. Bobur ham o'zining davlat boshlig'i sifatidagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'muriy-harbiy faoliyatida asosan islom diniga asoslanib harakat qilgan va buni doim o'zi ta'kidlab o'tgan. Shuning uchun uning davlatchilik

faoliyatida shariat meyorlarini o'zi tomonidan tashkil etilgan buyuk saltanatni, xususan, ko'p millatli va turli xil dinlarga amal qiluvchi Hindistondan ulkan mamlakatni boshqarishda qanday qo'llaganligini tahlil qilish, muhim tarixiy va amaliy ahamiyatga ega.

Boburning ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga, diniy-huquqiy qarashlariga islom dinini qanday ta'sir o'tkazganligini aniqlash ham alohida nazariy ahamiyatga ega.

Ma'lumki, Boburning islom dini farzlari, shariat ahkomlariga bo'lgan munosabati uning "Mubayyin" va "Boburnoma" kabi asarlarida o'z ifodasini topgan.

"Mubayyin" asarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Bobur nafaqat islom dini e'tiqodi bilan bog'liq asosiy masalalarni, iymon ruknlarini puxta egallagan, shu bilan birga, u e'tiqodli musulmon sifatida ularni qanday bajarish shartlarining ikir-chikirlarigacha bayon qilgan. Bobur uchun muhimi ushbu masalalar bo'yicha ma'lum bilimga ega bo'lish emas, balki ularga amalda rioya qilishdir.

"Mubayyin" asarining islomshunoslikdagi yana bir ahamiyati shundaki, u islom xuquqshunosligi hisoblangan fikr ilmi uchun XVI asrda turkiy tilda yaratilgan muhim manbalardan biridir.

Boburning din va diniy bag'rikenglik to'g'risidagi qarashlarini tahlil qilar ekanmiz, shuni ta'kidlab o'tmoq zarurki, Bobur Movarounnahr islom ilohiyotchiligidan asoslarini, uning yirik vakillarining asarlarini, ularning mazmun-mohiyatini, xususan, Imom Buxoriyning "Al-jome' as -sahih" va Burhonuddin Marg'inoniyning "Hidoya" asarlarini yaxshi bilganligini ko'rsatib o'tishimiz joiz. "Boburnoma"dagi quyidagi satrlar ham buni isbotlaydi: "...Temurbekdin burun Temurbekdek ulug' podshoh Samaraqandni poytaxt qilg'on emastur... Eli tamom sunniy va pok mazhab va mutasharri' va mutadayyin eldur.

Hazrati Risolat sallolohu alayhi va sallam zamonidin beri ul miqdor aimmayi islomkim, Movarounnahr din paydo bo'lubtur, hech viloyattin ma'lum emaskim, muncha paydo bo'lmush bo'lg'ay. Shayx Abu Mansurkim, aimmayi kalomdindur, Samarqandning Moturid otliq mahallasidindur. Aimmayi kalom ikki firqadur, birni "moturidiya" derlar, birni "ash'ariya". Moturidiya Shayx Abu Mansurg'a mansubdir. Yana sohibi "Sahihi Buxoriy" Xoja Ismoil Xartanak ham Movarounnahr dindur, yana sohibi "Hidoya" kim, Imom Abu Hanifa mazhabida. "Hidoya" din mu'tabarroq kitobi fiqh kam bo'lg'ay, Farg'onaning Marg'inon otliq viloyatidindur, ul ham doxili Movarounnahr dindur..." [5]

Boburning dinga bo'lgan munosabatini tahlil qilar ekanmiz, uning islom diniga qaysi yo'nalish va qaysi mazhab nuqtai - nazaridan yondoshganligini aniqlashimiz ham muhimdir. Ma'lumki, Bobur Movarounnahrni shayboniylardan qaytarib olish uchun safaviylar bilan ittifoq tuzishga, siyosiy maqsadlarni ko'zlab, ularga ayrim yon bosishlarga majbur bo'lgan edi.

Bobur sunniylikdagi to'rt mazhab: xanbaliya, shofiiyya, molikiyya, hanafiyya mazhablari imomlarini tan olgan holda, hanafiyya mazhabi musulmonchilik farzlarini ado etishda ancha yengilliklar yaratganligini alohida ko'rsatib o'tadi. Haqiqatan ham, ko'pchilik o'rta asr dinshunos olimlari hamda hozirgi davr diniy ulamolari va islomshunos tadqiqotchilar ham buni e'tirof etadilar.

Boburning din sohasidagi qarashlarida o'sha davrning hukmron ta'limoti bilan umumiy jihatdan yaqin bo'lsa ham, shu bilan birga, uning qarashlari an'anaviy dinshunoslikdan ma'lum darajada farq kiladi. Biz buni "Mubayyin"ning "Ishorat anga-kim ahl-i qibla takfiri joiz ermas-tur", deb nomlangan qismida yaqqol sezishimiz mumkin.

Boburning fikricha, chin musulmonlik o'z toat-ibodatini, e'tiqodini, taqvosini namoyishkorona ko'z-ko'z qilmasdan, boshqalarni u yoki bu gunoh uchun kofirlikda ayblamasdan, har bir kishining solih yoki osiyligini yolg'iz Alloh hukmiga havola qilishdur.

Uning “Mubayyin” asari islomshunoslik, huquqshunoslik, tarixshunoslik va falsafa kabi boshqa qator soha tadqiqotchilari uchun qimmatli manba bo‘la oladi.

Boburning islom farzlarini bajarish, shariat ahkomlariga rioya qilishga oid shaxsiy amaliy faoliyatiga kelsak, uning mustahkam iymon-e’tiqodli, taqvoli musulmon bo‘lganligiga hech qanday shubha yo‘q.

Shuningdek, uni podshoh sifatida o‘z mamlakatida shariat normalarini qat’iylik bilan qo‘llaganligiga ham ishonch hosil qilamiz. Bunga uning “Boburnoma”, “Mubayyin” kabi asarlaridan, she’rlaridan, uning hayotiga oid ma’lumotlarni o‘zida aks ettirgan o‘rta asr manbalaridan ko‘plab dalillar keltirish mumkin. Bobur hind rojasi Rano Sango bilan jang qilish oldidan, butun lashkar va ayonlari oldida may ichishni man qilish haqida farmon beradi. Bu farmonda shunday deyiladi: “...Bu orzu va bu osoyishtalik to‘la-to‘kis oxiriga yetgandan keyin, olam bo‘ysunishi lozim bo‘lgan farmon ijro sharafiga erishdiki, tinch sahlangan mamlakatda (xudo ofat va xavflardan omon qilsin) mutlaqo hech bir kishi ichkilik ichishga urinmasin, uni hosil qilishga tirishmasin, ichkilik yasamasin, sotmasin va olmasin, o‘zida sahlamasin, eltmasin va keltirmasin: “Ichkilikdan qochinglar, shoyadki, najot topsangizlar” [6].

Boburning bu boradagi mazkur qarashlari qo‘shinda va mamlakatda muayyan barqarorlikka erishishga xizmat qilgan va bu g‘oyalar hozirgi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan hamda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Shuni ham alohida e’tirof etish lozimki, Bobur xurofiy tushuncha va urf odatlarga tanqidiy yondoshadi. Insonlarni aldaydigan, ularning ongini buzadigan, turli xiylanayrang bilan moddiy manfaat ko‘radigan mutaassib va qallob kimsalarning faoliyatini qat’iyan taqiqlaydi: “Dedilarkim, G‘aznining kentlarida bir mazor bordurkim, salavot aytg‘och, qabr mutaxarrik bo‘lur. Borib mulohaza qilildi, qabrning tebrangani mahsus bo‘ldi. So‘ngra ma‘lum bo‘ldukim, mujovirlarning tazviri ekanur. Qabrning ustig‘a bir jul‘ya yasabturlar, har zamon jul‘yaga tegadurlar, jul‘ya tebrangach, qabr tebrangandek maxsus bo‘ladur. Nechukkim, kemaga kirmagan el kemaga kirgach sohil mutaharrik maxsus bo‘lur. Buyurdumkim, mujovirlar jul‘yadin yiroq turdilar, bir necha salovot ayttilar, qabrda harakate mahsus bo‘lmadi. Buyurdumkim, jul‘yani buzub, qabrning ustida gunbaz qildilar. Mujovirlarni bu harakattin tahdid bila man’ qilildi”. [7]

Zahiriddin Muhammad Boburning din va diniy bag‘rikenglik to‘g‘risidagi qarashlari haqidagi fikr-mulohazalarni yakunlar ekanmiz, xulosa tariqasida shuni e’tirof etish joizki, u islom dini asoslarini yaxshi o‘zlashtirgan, shariat qoidalariga doimo rioya qilgan hamda diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik haqidagi ilg‘or g‘oyalarni ilgari surgan buyuk davlat arbobi va fiqhshunosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Сотимов Ф. Бобурийлар давлати бошқарувида дин // Hidoyat. -2001. -№2. –Б.30.
2. Бобур З.М. Бобурнома. -Т.:Шарқ, -2002. -Б.331.
3. Шарма Л.П. Бобурийлар салтанати: Ингл. тилидан тарж.-Т.: Маънавият, 1998. – Б.22.
4. Шарма Л.П. Бобурийлар салтанати: Ингл. тилидан тарж.-Т.: Маънавият, 1998. – Б.23.
5. Шарма Л.П. Бобурийлар салтанати: Ингл. тилидан тарж.-Т.: Маънавият, 1998. – Б.24.
6. Бобур З.М. Бобурнома. -Т.:Шарқ, -2002. – Б.59.
7. Бобур З.М. Бобурнома. -Т.:Шарқ, -2002. – Б.269.